Ketma-ket yaqinlashish usuli. Bu usul chastotani ohista o‘zgartirish usulini ko‘rinishlaridan bir turi. Bu usulni mohiyati shundan iboratki, bunda masofa ketma-ket yaqinlashish bilan quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$R = \frac{v}{2\delta f} \quad (6)$$

bu yerda δf – qo‘shni chastotalar farqi, bularda ΔN kattalik bir xil.

Chastotalar diapazonining boshida δf kattalikdan foydalanib, R topiladi, bu birinchi yaqinlashishni qiymati bo‘ladi. So‘ngra formula bo‘yicha $2\delta f$ interval bilan

ajralgan birinchi va uchinchi chastotalarning farqini ikkiga bo'lish bilan R - masofa hisoblanadi. Keyingi yaqinlashishda $3\delta f$ intervaldan foydalaniladi va x.k., toki keyingi o'lchashda chastotalar intervali oldingisidan $\lambda/4$ kattalikdan kam farq qilmaguncha, ya'ni modulyatsiyani butun diapazonida N -sonini bexato aniqlash darajasigacha masofa ma'lum aniqlikda ma'lum bo'lguncha.

Karrali chastotalar usuli. (6) tenglamani yechish uchun yarim to'lqinlarni butun qo'yilishlar soni N ni aniqlashni ta'minlaydigan aniqlikda R ni taqribiy qiymatini

bilish zarur:

$$N = \frac{2R_{taqr} \cdot v}{\lambda} \quad (7)$$

N ni aniqlashdagi xatolik 0,5dan kichik bo'lishi kerak, o'z navbatida, R taqribiy qiymatini aniqlash xatosi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$m_R = \frac{\lambda}{4} \quad (8)$$

Bu usulda bir ma'nolik emaslikni yechishi ikki usuli qo'llaniladi:

karrali chastotalar va kombinatsiyalangan chastotalar.

Karrali chastotalar metodi. Bu metodda m ta fiksatsiyalangan chastotalar ishlatiladi, bular m ta mustaqil tenglama beradi. Fiksatsiyalangan chastotalar $f_1 > f_2 > f_3 > \dots > f_m$ qatorni tashkil etadi. Metodni mohiyati shundan iboratki, keying past chastotalar bo'yicha fazalar farqini o'lchash natijasidan N ni aniqlash:

$$N_{i-1} = \frac{\lambda_i}{\lambda_{i-1}} (N_i + \Delta N_i - \Delta N_{i-1}) \quad (9)$$

bunda $i = (m, \dots, 4, 3, 2)$.

$$k = \frac{\lambda_i}{\lambda_{i-1}} \quad (10)$$

ga teng bo'lgan butun kattalikni bir ma'nolik emaslikni koeffitsienti deyiladi, ΔN ni aniqlash aniqligini ortib borishi bilan bu kattalik kattalashib boradi.

Kombinatsiyalashgan chastotalar metodi. Bu metodda ham $f_1 > f_2 > f_3 > \dots > f_m$ chastotalar to'plami ishlatiladi, lekin bular bir tartibdagi kattalik bo'lib, $f_1 > (f_1 - f_m) > (f_3 - f_{m-1}) > f_1 - f_2$ ketma ketlikda beriladi. Bunda ikki chastotada fazalar farqini o'lchash natijalari farqlar chastotasida o'lchashga ekvivalent. Kombinatsiyalashgan metodda taqribiy masofani aniqlash xatoligi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$m_R = k \frac{\lambda}{4} \quad (11)$$

k bu yerda $k_{i,i+1}+1/\lambda_i=f_i(f_i-f_{i+1})$ ifodadan aniqlanadi.

Agarda masala ikki chastotada yechilsa, to'liqin uzunligini aniqlash xatosi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$m_\lambda = \frac{m_N \lambda_1 \lambda_2}{4R^2 \sqrt{\lambda_1^2 + \lambda_2^2}}. \quad (12)$$

Agar $m_N \leq 0,5$ va $\lambda_1 \approx \lambda_2$ bo'lsa, unda (12) ifoda quyidagi ko'rinishga keladi:


$$m_\lambda = \frac{\lambda}{11,28R^2} \quad (13)$$

(13) ifodada ko'ramizki, chastota (to'liqin uzunligi) iloji boricha barqaror bo'lishi kerak.

Kombinatsiyalashgan chastotalar usuli. Bu usulda f_1 va f_2 chastotalarga va o'zgaruvchi chastotalar generatorga sozlangan ikkita chastotalar generatori qo'llaniladi. Shunday qilib, bu usulda ikkita chastota uchun (12) tenglama, n_{1-2} ma'lum bo'lgan chastotalar o'zgarishida hisoblanishi mumkin bo'lgan (13) tenglama o'rin oladi.


Yerusti lazerli skaneri bilan masofa o'lchashni triangulyatsiya metodi. Xozirgi vaqtda masofa o'lchashni triangulyatsiya metodini ikkita varianti mavjuddir.

Birinchi variant triangulyatsiya skanerlari bo'yicha masofa o'lchash metodining mohiyati. Projektor yordamida past quvvatli lazer nurlari boshlang'ich yo'nalishdan og'adi. Bazis skaneri d va lazer nuri hosil qilgan θ_1 burchak, zaryadli bog'lovchi asbob (ZBA) – kamerasining priyomnikidagi lazer dog'i tasvirining xolati bo'yicha hisoblanadi. θ_1 burchak skaner o'qi (bazisi) va ikkinchi ZBA kamera bilan fiksatsiyalanadigan ob'ektdan akslangan signalni tarqatish vektori orasida hosil bo'ladi. "Triangulyatsion lazerli skaner" termini ingliz tilidagi kitoblardan olingan bo'lib, u bir muncha noto'g'ri (nokorrekt), sababi skanerni ishlash prinsipi ob'ektgacha bo'lgan masofani θ_1 , θ_2 va d kattaliklar yordamida to'g'ri burchak kesishtirish usulida aniqlashga asoslangan. Bizlarni o'zimizda bu terminga analog bo'lmaganligi uchun ushbu termin tekstda keyinchalik ham ishlatiladi.



**2-rasm. Yerusti lazerli skanerini ishlash prinsipi Mensi Soisic va S-series
(yuqoridan ko'rinishi)**

2-rasmda triangulyatsiya skanerini ishlashini boshqa prinsipini mohiyati tasvirlangan.



3-rasm. Minolta Yerusti lazerli skaneri ishlash prinsipi (yon tomonidan ko'rinishi)

3-rasmda ko'ramizki, Minolta tipidagi skanerlarda ZBA-1-kamera o'rniga poligonal ko'zgu ishlatilgan, u servo uzatma (yordamchi uzatma) yordamida lazer nurini og'diradi. Bunda θ_1 burchak limb yordamida o'lchanadi, u poligonal ko'zguni boshlang'ich holatiga nisbatan burilish burchagini registratsiyalaydi. Triangulyatsion skanerlar bilan masofa o'lchashni asosiy xususiyatlari:

1) lazer manbaiga yaqinida joylashgan linzalari sistemasi yordamida gorizontal tekislikda nurlar yoyilmasi hosil qilinadi;

2) skaner kallagini (golovkasini) amalga oshiruvchi servo uzatmasi yo'q. Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan triangulyatsion skanerlarni ishlash doirasi bir necha o'n santimetrdan 25 metrgacha ekanligi burchak o'lchashdagi xatoligiga atmosferaning (refraksiya va elektromagnit to'lqinlarini so'nishiga) ta'siri amaliy jihatdan hisobga olmasa ham bo'ladigan darajada. Ob'ekt nuqtalarini fazoviy koordinatalarini triangulyatsion skanerda o'lchash aniqligi 50 mkm dan 0.3 mm bo'lib, asosan bunga o'lchanayotgan masofaning kattaligi asbobni instrumental xatosi, skanerni boshqaruviga asos qilib olingan dasturni matematik yechimini aniqligi bilan bog'liq bo'lgan, uslubiy xato, hamda skanerlanayotgan ob'ektni teksturasi (tarkibiy tuzilishi) materiali va shakliga bog'liq.

Triangulyatsion skaner bilan ob'ektni skanerlashda skanerlovchilar s'yomka ob'ektining yuzasini birdek akslantiruvchi qiladigan maxsus kukun bilan ishlab chiqishni tavsiya etadilar. Burchakdagi xatolikka skanerlanayotgan ob'ektni teksturasi, shakli va materiali ta'sirida burchak xatosi kelib chiqadi. Bu ob'ektni ayrim qismlaridan yoki tekisliklaridan lazer nurini akslanishi turlicha bo'lishi oqibatida kelib chiqadi. O'z navbatida bu qabullanayotgan energiyani katta taqsimlanishiga olib keladi, o'lchashda kirish signali dog'ining markazini noto'g'ri aniqlash natijasida asimmetriya yuzaga keladi.

Triangulyatsion skanerlar asosan mashinasozlikda, tibbiyotda, aviasozlikda va shularga o'xshash boshqa ishlarda qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.N.Inamov, J.O.Lapasov, S.I.Xikmatullayev, “Injenerlik geodeziyasi” O‘quv qo‘llanma, Toshkent 2017
2. Panaev S.S. “Injenerlik geodeziyasi” fanidan o‘quv-uslubiy majmua Urganch, 2020
3. Toshpo‘latov S. A., Islomov O‘.P., Inamov A.N., Pardaboev A.P. “Zamonaviy geodezik asboblari” Darslik, Toshkent-2020
4. Мубораков Х, Охунов З. Д., Хайитов Х.Ж., Рўзиев А. С., Якубов Г.З. “Геодезия” фанидан дарслик” Т.: 2020.
5. Т.М.Карабаева, А.Ж.Гофиров. Обследование и картографирование земельных ресурсов с использованием ГИС технологии. Международный научный сельскохозяйственный журнал, №1. 2019 г. 47-49 ст.
6. Lazerli nivelirlar. Qulmirzayev Qurbonbeki Jonibek, Azim Jumayevich Gofirov. O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi ISSN: 2181-7774 The role of agriculture and medicine in science ISSN: 3060-5032 № 1/1(19) 2025.
7. Gofirov Azim Jumayevich. Qulmirzayev Qurbonbeki Jonibek. Aholi yashash joylarini hududiy kengayishini GIS texnologiyasi asosida kartalashtirish (Jizzax shahar Bunyodkor MFY misolida) “Barqaror O‘rmonchilik” IV Xalqaro ilmiy-texnik anjuman IV International conference on sustainable forestry – 2024 2024-yil 1-2-noyabr. Tom 4. 245-251 b. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14005403>
8. Babajanov Allabergan Ruzimovich, G‘ofirov Azim Jumaevich. Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga oid xorijiy tajribalar, ularni respublikamizda joriy etish. O‘zbekiston zamini jurnali. № 1 2025 y. 28-31 b. <https://doi.org/10.63027/2025/1/7>

Internet sahifalari:

1. www.wikipedia.org
2. www.glotr.uz

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15485069>

SPATIAL CONFIGURATION AND ELECTRONIC STRUCTURE OF GLYCYRRHIZINIC ACID WITH L-CARNITINE

Turgunova Sabohat Ilkhomjon qizi

Assistant, Chirchik branch of Tashkent State Medical University

sabohatturgunova5@gmail.com

Saydullayev Abdukhalim

Associate Professor, Chirchik branch of Tashkent State Medical University

abduhalim.saydullayev.92@bk.ru

Abstract: *In recent years, our republic has been implementing consistent reforms in the rational use of natural resources of medicinal plants, their protection, the establishment of plantations for their cultivation and processing. Thus medicinal from plants one sweetie (Glycyrrhiza glabra L). In our republic wide widespread and industry in scale again worked from it dark extract, technical glycyrrhizin acid working is released. It is known him/her main impact provider from components one 18 β –H Glycyrrhizin acid is considered and his/her based on row complex medicine tools working removed in medicine wide is being used. Including to the virus against, liver to diseases Anti- allergic (hepatitis B, C) diseases and etc.*

Substances synthesis effective organization to do and targeted redirect for guess doer computer from programs use today's on the day advanced from methods This is one of them. ORCA (quantum chemical calculations methods for program package (computer) from programs used. Glycyrrhizin acid aromatic -nitro compounds, caffeine, biological active L- carnitine from supplements with supramolecular complex spatial structure and Gkni dimer and trimmers electronic structure and configuration analyses about information and results cited.

Keywords: *molecule, electron, GK, ORCA, atom, quantum chemistry, correlation, nuclei, L-carnitine, physical and chemical.*

Аннотация: *В последние годы в нашей республике проводятся последовательные реформы по рациональному использованию природных ресурсов, их охране, созданию и переработке плантаций лекарственных растений. Одним из таких лекарственных растений является солодка голая (Glycyrrhiza glabra L.). Он широко используется в нашей республике и*

перерабатывается в промышленных масштабах с получением густого экстракта — технической глицирризиновой кислоты. Известно, что одним из ее основных действующих компонентов является 18β-Н-глицирризиновая кислота, на основе которой производится ряд комплексных препаратов, широко применяемых в медицине. В том числе противовирусные, заболевания печени (гепатит В, С), аллергические заболевания и т. д.

Использование предиктивных компьютерных программ для эффективной организации и целенаправленного синтеза веществ является одним из самых передовых методов на сегодняшний день. В данной работе использовались компьютерные программы ORCA (пакет программ для квантово-химических методов расчета). Представлены данные и результаты по пространственной структуре супрамолекулярного комплекса глицирризиновой кислоты с ароматическими нитросоединениями, кофеином и биологически активной добавкой L-карнитином, а также анализ электронной структуры и конфигурации димеров и тримеров Gkni.

Ключевые слова: молекула, электрон, GK, ORCA, атом, квантовая химия, корреляция, ядра, L-карнитин, физико-химический.

Anotatsiya: Respublikamizda so'ngi yillarda dorivor o'simliklar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish, yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va qayta ishlash borasida izchil islohatlar amalga oshirilmoqda. Shunday dorivor o'simliklardan biri shirinmiya o'simligi (Glycyrrhiza glabra L). Respublikamizda keng tarqalgan va sanoat miqqiyosida qayta ishlanib undan quyuq ekstrakt, texnik glitsirrizin kislotasi ishlab chiqariladi. Ma'lumki uni asosiy ta'sir etuvchi komponentlaridan biri 18β-Н Glitsirrizin kislotasi hisoblanadi va uning asosida qator kompleks dori vositalari ishlab chiqarilib tibbiyotda keng qo'llanilmoqda. Jumladan virusga qarshi, jigar kasalliklariga qarshi (gepatit B, S) allergik kasalliklar va hokazo.

Moddalar sintezini samarali tashkil qilish va maqsadli yo'naltirish uchun taxmin qiluvchi kompyuter dasturlaridan foydalanish bugungi kunda ilg'or metodlardan biridir. Ushbu ishda ORCA (kvantkimyoviy hisob-kitoblar metodlari uchun programma paketi) kompyuter dasturlaridan foydalanildi. Glitsirrizin kislotani aromatik-nitro birikmalar, kofein, biologik faol qo'shimchalardan L-karnitin bilan supramolekulyar kompleksi fazoviy tuzilishi va Gkni dimer va trimerlarining elektron tuzilishi va konfiguratsiya tahlillari xaqida ma'lumotlar va natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: molekula, elektron, GK, ORCA, atom, kvant-kimyoy, korrelyatsiya, yadrolar, L-karnitin, fizik va kimyoviy.




Figure 1. The spatial structure of glycyrrhizic acid

Contain three carboxyl, one carbonyl, and five hydroxyl groups, as shown in Figure 1. The molecule methyl groups branches with almost flat to form has.




Figure 2. The most high located molecular in orbit electronic density distribution (different) colors electronic of the cloud wave function various to the stages suitable comes); complete picture; b) the most high- band molecular in orbit electronic cloudy molecule part of enlarged image.

From the picture visible it is clear that the most high- band molecular in orbit electronic density distribution mainly in the picture a- as shown molecule right half electronic from the cloud consists of, from this except for its electronegativity lower was in atoms located if, oxygen atoms and to the nucleus strong shooting because of deeper on the levels located to electrons has.

Table 1.

The most high busy molecular orbital and the most lower empty molecular orbital energy floors and to them the most close floors.

EUBMO -3	EYUBMO -2	EYUBMO -1	EYUBMO	EQBMO	EQBMO -1	EQBMO -2	EQBMO -3
-5,769	-5,675	-5,617	-5,198	-4,795	-4,632	-4,070	-3,725




Figure 3. Electronics density distribution level a) most high busy molecular orbital -1 and b) the most high busy molecular orbital -2 atoms according to.

We also in the picture the most high busy molecular orbital and in the picture the most lower empty molecular to the orbital close energy on the floors electronic density distribution we will show you. This distributions energy level deepening with electronic distribution step by step shift shows, they chemical and physicochemical reactions in the process molecule excitable transition status in formation and new compounds, associations and conglomerates harvest in being also important role to play possible.




Figure 4. Electronics density distribution level a) most lower empty molecular orbital and b) in atoms the most lower empty molecular orbital-1.

We use L- carnitine also seeing we'll go out, he'll come later Glycyrrhizin acid with supramolecular complex harvest does. Connection Descartes coordinates in the application cited.

The most high busy molecular orbital electronic structure mainly carnitine in oxygens located if, the most lower empty molecular in orbit located electrons molecule other, opposite part occupies. From known It turns out that carnitine when excited electronic molecule central and opposite to the part will pass.




Figure 5. L- carnitine spatial structure.




Figure 6. L- carnitine atoms according to a) the most high busy molecular orbital and b) the most lower empty in molecular orbital layers electronic density distribution.

Table 2.

L -Carnitine the most high busy molecular orbital and the most lower empty molecular orbital energy floors and to them the most close floors.

EYUBMO -3	EYUBMO -2	EYUBMO -1	EUBMO	ECBMO	ECBMO -1	ECBMO -2	ECBMO -3
-12,882	-11,937	-11,591	-10,264	-6,993	-3,771	-3,486	-3,055

Glycyrrhizin acid dimer and trimmer structure and electronic structure

Glycyrrhizin acid dimer to study, its the most simple association as, two acid molecule parallel to each other close in the distance located dimer elementary structure build with Later, the structure general energy minimize for to the complex molecular dynamics method and the most upright fall method to apply change through molecule step by step optimization done increased and this process one how many times repeated general of energy change in advance designated small from the value less it has been.




Figure 7. Two measurable molecule of the complex geometry optimization elementary point.

Table 3.

Glycyrrhizin acid dimer complete energy.

	Theoretical calculations	Experience results
Molecule	75042.5 eV	
Dimer	150085.159 eV	
Energy increase	0.159 eV	0.1736 Ev

In the literature given experimental from the point of view obtained $5.72 \cdot 10^{-4}$ J/mol Gibbs energy every one from 0.17 eV per particle right comes and complete not been hydrogen to the garden or one how many Van der Waals to the gardens right is coming.

Geometry optimization as a result we in the picture As shown, Glycyrrhizin acid dimer structure harvest we did, they each other with mutual connected to be, to be next door to the molecule more connection to the points has to be for every one molecule his/her own initial in the structure from bending passes. From the picture visible it is clear that the gardens one part hydrogen gardens on account of, second part, Van der Waals on principle mainly intermolecular shooting to the mechanism according to to the surface arrived.

Below cited in the picture in literature in the PM3 method presented calculated dimer harvest to be energy brought, our calculations 26.3 kcal/mol This is giving their as a result PM3 calculations in the literature are better head to the tail of the type connections showing if so, our accounts head per head connections shows.





Figure 8. Two measurable molecule of the complex geometry optimization last point.



In dimers the most big hole size 5.59 Å is, inside the dimer of the void size 6.77 Å organization will. In this Glycyrrhizin acid two on the edge atoms between distance from 36.6 Å to 15.5 Å decreased, that is one linear shaped molecule bending and deformation as a result his/her twice the size more than compacted.

Two measurable molecule of the complex geometry optimization last dimer formation at the point in being Glycyrrhizin acid molecules pieces location image, molecules various kind in colors painted, almost linear flat that Glycyrrhizin acid molecule association harvest in being bend, the molecule the most high- band molecular orbital electronic cloud bigger was in part gardens harvest Naturally, this without one molecule the most high- band molecular from orbital electrons other molecule the most lower empty molecular to the orbital passing, general molecular orbital product does.

References

1. Perdew J. P. Density-functional approximation for the correlation energy of the inhomogeneous electron gas // Physical Review B. – 1986. – V. 33. – №. 12. – P. 8822.
2. Goerigk L. A look at the density functional theory zoo with the advanced GMTKN 55 database for general main group thermochemistry, kinetics and noncovalent interactions // Physical Chemistry Chemical Physics. – 2017. – V. 19. – №. 48. – P. 32184-32215.
3. Rappoport D. Which functional should I choose? // Computational Inorganic and Bioinorganic Chemistry. – 2008. – V. 594. – page. 1-25.
4. Schenk G., Pau MYM, Solomon EI Comparison between the geometric and electronic structures and reactivities of {FeNO} 7 and {FeO2} 8 complexes: A density functional theory study // Journal of the American Chemical Society. – 2004. – V. 126. – No. 2. – S. 505-515.
5. Kon V., Electronic structure of matter – wave functions density functionals V.Kon // UFN. – 2002. – T. 172. –P. 336-348.
6. Староверов Б. Н. Comparative assessment of a new nonempirical density functional: Molecules and hydrogen-bonded complexes // The Journal of chemical physics. – 2003. – V. 119. – №. 23. – P. 12129-12137.
7. Muller A., Reuter N., Dillinger S. Supramolecular inorganic chemistry: small guests in small and large hosts. - Angew . Chem . Int . Ed . Engl . - 1995. - V.34. - P. 2328-2361.
8. Tolstikova T.G., Tolstikov A.G., Tolstikov G.A. Towards low-dose drugs // Bulletin of the Russian Academy of Sciences. 2007. - V.77. – No. 10. – P.867–874 28.
9. Ashihara H. Caffeine and related purine alkaloids: biosynthesis, catabolism, functions and genetic engineering // H. Ashihara, H. Sano, A. Crozier // Phytochemistry. - 2008. - Issue. 69, No. 4. - P. 841-856.
10. Hostettmann K.K. Hostettmann, A. Marston, K. Ndjoko, J.L. Wolfender Potential of African Plants as Sources of Medicines // Org. Chemistry. - 2000. - Issue 4, No. 10. - P. 973-1010.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15485083>

DORI VOSITALARINING ORGANIZMGA TA'SIR MEXANIZMI

Obidova Iroda Abduljalil qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Chirchiq filiali
Farmatsiya yo'nalishi 102- guruh talabasi

Saydullayev Abduxalim Abdusalim o'g'li

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Chirchiq filiali
Tibbiy-biologik fanlar kafedrası mudiri, dotsent
abduhalim.saydullayev.92@bk.ru.

Turg'unova Sabohat Ilxomjon qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Chirchiq filiali
Tibbiy-biologik fanlar kafedrası assistenti
sabohatturg'unova5@gmail.com

Annotatsiya: Farmatsevtik biokimyo – bu dorilarning kimyoviy tarkibi, ularning organizmga kirib ta'sir qilishi va metabolizimga qanday ta'sir etishini o'rganadigan fan sohasidir. Bugungi kunda farmatsevtika sanoati turli kasalliklarni davolash va oldini olish uchun ko'plab dori vositalarini ishlab chiqmoqda. Ushbu maqolada dorilarning biologik ta'sir mexanizmlari, ularning parchalanish jarayonlari va samaradorligi, insoniyat xayotidagi muhim ro'li va zararlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: dori vositasi, kasallik, farmatsevtika, farmadinamika, farmakokinetika, metabolizm, organizm, mexanizm, modda, so'rilish, ferment, retseptor, garmon, organ, retsept, yallig'lanish, parchalanish, simptomlar, biologik, fiziologik, genetik, tabiiy.

Аннотация: Фармацевтическая биохимия — раздел науки, изучающий химический состав лекарственных средств, пути их поступления в организм и влияние на обмен веществ. Сегодня фармацевтическая промышленность разрабатывает множество препаратов для лечения и профилактики различных заболеваний. В статье рассматриваются механизмы биологического действия лекарственных препаратов, процессы их деградации и эффективность, а также их важная роль и вред в жизни человека.

Ключевые слова: лекарство, болезнь, фармацевтические препараты, фармакодинамика, фармакокинетика, метаболизм, организм, механизм, вещество, всасывание, фермент, рецептор, гормон, орган, рецепт, воспаление, разложение, симптомы, биологический, физиологический, генетический, естественный.

Abstract: *Pharmaceutical biochemistry is a branch of science that studies the chemical composition of drugs, how they enter the body and affect metabolism. Today, the pharmaceutical industry is developing many drugs for the treatment and prevention of various diseases. This article discusses the mechanisms of biological action of drugs, their degradation processes and effectiveness, their important role and harm in human life.*

Keywords: *drug, disease, pharmaceuticals, pharmacodynamics, pharmacokinetics, metabolism, organism, mechanism, substance, absorption, enzyme, receptor, hormone, organ, prescription, inflammation, degradation, symptoms, biological, physiological, genetic, natural.*

“Dori vositalari o‘z-o‘zidan shifo emas, balki organizmga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi vositadir” Paracelsus.

Dori vositalari inson organizmiga turli biologik jarayonlarni tartibga solish, kasalliklarni davolash yoki simptomlarni yengillashtirish maqsadida kiritiladi. Ular organizmga tushgach, murakkab fiziologik va biokimyoviy o‘zaro ta’sirlarga kirishadi. Bu jarayon farmakokinetika va farmakodinamika orqali amalga oshadi. Har bir dori ma’lum bir hujayra yoki molekulyar nishonga ta’sir qiladi. Bu nishonlar odatda hujayra retseptorlari, fermentlar yoki ion kanallari bo‘lib, dorilar ularning faoliyatini kuchaytirish yoki susaytirishi mumkin. Shuning uchun ham dorilar inson organizmidagi tabiiy mexanizmlarni o‘zgartiruvchi kuchli kimyoviy vositadir. Ularning ta’siri nafaqat kasallikni bartaraf etish, balki nojo‘ya ta’sirlar bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda farmatsevtik biokimyo sohasi dorilarining yanada samarali va xavfsiz bo‘lishini ta’minlash uchun chuqur o‘rganilmoqda. Genetika, nanotexnologiya va sintetik biologiya kabi ilg‘or fanlar dori vositalarining individual organizmlarga moslashuvchanligini oshirishga yordam bermoqda.

Dori vositalari organizmga ta’sir etish jarayonida turli bosqichlardan o‘tadi. Ushbu jarayon farmokinetika va farmodinamika asosida tushuntiriladi. Dori vositalar organizmga tushgach, bir qancha bosqichlardan o‘tadi: so‘rilish, taqsimlanish, metabolizm va chiqarish. Ular Reseptorlar, fermentlar, ion kanallar va garmonlar orqali ta’sir ko‘rsatib, organizmning turli tizmlariga ta’sir qiladi. Shu sababli, dorilarni to‘g‘ri dozada va shifokor nazorati ostida qabul qilish muhimdir.

Farmokinetika-dori vositalarini organizmga tushgandan keyingi harakatini, ya’ni uni so‘rilishini, taqsimlanishi, biotransformatsiyasi va chiqarilish jarayonlarini o‘rganadi.

So‘rilish (Absorbsiya)

-Dori vositasi qabul qilingandan keyin ichak, teri yoki mushak orqali qon aylanish tizimiga so‘riladi.

-Soʻrilish jarayoni dorining kimyoviy tarkibi, qabul qilish usuli (ogʻiz, vena, teri orqali) va organizmlarning holatiga bogʻliq.

Taqsimlanishi (Distributsiya)

-Dori qonga oʻtgach, butun organizm boʻylab tarqaladi.

-Organ va toʻqimalar dori moddalarini oʻziga singdirib oladi.

-Miyaga kirishi gematoensefalik toʻsiq, homilaga taʼsiri esa platsentar toʻsiq orqali cheklanadi.

Biotransformatsiya (Metabolizm)

-Dori jigar va buyrakda ferment yordamida oʻzgarishi

-Baʼzi dorilar faqat metabolizm natijasida faollashadi.

-Metabolizm natijasida dorining faolligi kamayadi yoki toksik moddaga aylanishi mumkin.

Chiqarish (Ekskretsia)

-Dorilar buyrak orqali siydik bilan, jigar orqali oʻt bilan, nafas orqali yoki teri orqali chiqariladi.

-Buyrak yetishmovchiligi boʻlgan bemorlarda dorilar organizmda uzoqroq ushlanib turilishi mumkin.

Farmakodinamika – dori vositalarining organizmdagi biologik va fiziologik taʼsirini tushuntiradi.

Retsept dorilar bilan taʼsirlanishi.

-Dori vositalari organizmdagi oqsil -retseptorlar bilan boʻgʻlanib, maʼlum fiziologik taʼsirni keltirib chiqaradi.

-Agonistlar retseptorlarni faollashtiradi va tabiiy moddalar kabi taʼsir qiladi.

-Antagonistlar - retseptlarni bloklab, tabiiy moddalar taʼsirini toʻxtatadi.

Fermentlarga taʼsiri

-Baʼzi dorilar organizmdagi fermentlarni faollashtiradi yoki inhibe qiladi.

Misol uchun; aspirin – siklooksigenaza fermentni bloklab, yalligʻlanishni kamaytiradi.

Ion kanallarga taʼsiri

- Dori vositalari hujayra membranalaridagi ion kanallarini ochishi yoki yopishi mumkin.

- Misol uchun; lidokain - natriy kanallarini bloklab, ogʻriq signallarini oldini oladi.

Gormonlarga taʼsiri

Baʼzi dorilar gormonlar ishlab chiqarilishini kuchaytiradi yoki toʻxtatadi.

Misol uchun; insulin inʼeksiyasi qonda glyukoza miqdorini kamaytiradi.

Dori vositalarining organizmga umumiy taʼsiri.

Markaziy asab tizimiga taʼsiri – sedativlar , antidepressantlar, narkotiklar.

Qon aylanish tizimiga taʼsiri – qon bosimni tushiruvchi yoki koʻtaruvchi dorilar.

Ovqat hazm qilish tizimiga ta'sir – oshqozon kislatasini kamaytiruvchi yoki oshqozon preparatlar.

Immunitetga ta'siri – immunosupressantlar, vaksinalar, immunitetni oshiruvchi dorilar.

Dori vositalarining ijobiy va salbiy tomonlari

Dori vositalari inson salomatligini saqlash va tiklashda muhim ahamiyatga ega. Ular kasalliklarning oldini olish, davolash va yengillashtirishda keng qo'llaniladi. Biroq, har qanday dori vositasining ijobiy tomonlari bilan birga salbiy ta'sirlari ham bo'lishi mumkin.

Ijobiy tomonlari:

Kasalliklarni davolash: Dori vositalari bakterial, virusli, zamburug'li va boshqa ko'plab kasalliklarni davolashda asosiy vositadir.

Og'riqni kamaytirish: Analgetiklar og'riqni yengillashtiradi, bu esa bemorning hayot sifatini yaxshilaydi.

Hayotni saqlab qolish: Yurak xurujlari, insult, allergik reaksiya kabi holatlarda dori vositalari tezkor yordam ko'rsatib, hayotni saqlab qoladi.

Profilaktik ta'siri: Ayrim dorilar (masalan, vaksinalar yoki vitaminlar) kasalliklarning oldini olishda foydali hisoblanadi.

Psixologik yengillik: Dori ichish bemorda ishonch uyg'otadi va bu ruhiy jihatdan tiklanishga yordam beradi.

Salbiy tomonlari:

Nojo'ya ta'sirlar: Har qanday dori organizmda allergik reaksiyalar, oshqozon-ichak muammolari yoki boshqa salbiy holatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Qaramlik (addiksiya): Ba'zi dorilar (masalan, og'riq qoldiruvchi yoki uyqu dorilari) uzoq muddat qo'llanilganda qaramlikni keltirib chiqaradi.

Dori vositalariga qarshilik: Antibiotiklarning noto'g'ri qo'llanishi bakteriyalarda chidamlilikni shakllantiradi, bu esa davolashni qiyinlashtiradi.

Noto'g'ri qo'llash xavfi: Dori dozasi, davolanish davomiyligi yoki turining noto'g'ri tanlanishi sog'liq uchun xavf tug'diradi.

Iqtisodiy xarajatlar: Doimiy dori iste'moli ayrim bemorlar uchun moliyaviy jihatdan og'irlik qilishi mumkin.

Dori vositalari zamonaviy tibbiyotning ajralmas qismi bo'lib, ular to'g'ri va mas'uliyat bilan qo'llanilsa, salomatlikni tiklashda katta foyda keltiradi. Biroq har doim shifokor tavsiyasiga rioya qilish zarur, chunki noto'g'ri foydalanish sog'liqqa jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Dori vositalarining organizmga ta'siri mexanizmini tushunish ularning samaradorli va xavfsiz qo'llanilishi uchun muhim ahamiyatga ega. Dori vositalari retseptorlar, fermentlar, ion kanallar, gen eksperessiyasi va kimyoviy yoki fizik ta'sir mexanizmlari orqali organizmda turli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Har bir dori o'ziga xos farmakodinamik xususiyatga ega bo'lib, uning ta'sir samaradorligi farmakokinetik jarayonlar- so'rilish, taqsimlanish, metabolizm va chiqarilish bilan bog'liq. Dorilarning individual ta'siri yosh, jins, genetik xususiyatlar va fiziologik holat kabi omillarga bog'liq bo'lib, shifokorlar bu faktlarni xisobga olishi kerak. Bugungi zamonaviy tibbiyot va farmatsevtika sohasi jadal rivojlanib, dori vositalarining ta'sir mexanizmlari chuqur o'rganilmoqda buning natijasida ishlab chiqarilgan dori vositalaridan foydalanish sog'liqni saqlash tizimining muhim bir sohasiga aylanib bormoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak: Dori vositalaridan to'g'ri va ma'suliyat bilan foydalanish inson salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Har bir dori vositasi ma'lum bir kasalliklarni davolash yoki simptomlarni yengillashtirish uchun yaratilgan bo'lib, noto'g'ri yoki nazoratsiz qo'llanilsa, foyda o'rniga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli, dorilarni faqat malakali shifokor tavsiyasi bilan belgilangan dozada belgilangan muddatgacha qabul qilish zarur. Bundan tashqari, har bir dorining qo'llanilishi, saqlanish shartlari va mumkun bo'lgan nojo'ya tasirlarini oldindan bilish sog'liq uchun muhim kafolat bo'lib xizmat qiladi. Dori vositalariga nisbatan etiborsizlik-sog'liq uchun jiddiy havf keltirishi mumkin. Shuning uchun har bir fuqaro dorilardan foydalanishda ongli, ehtiyotkor ma'suliyatli bo'lish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Katzung.G, Trevor A.J Farmakalogiyaning va klinik jihatlar.
2. O'zbekiston Respublikasi farmakopiyasi.
3. Shifokorlar va farmatsevtlar uchun ma'lumotlar bazasi. PubMed, Medscape, WebMd.
4. Toshkent Tibbiyot Akademiyasi. Farmakologiya fanidan darslik. – Toshkent, 2021.
5. Uzpharm-control.uz, Wikipedia ilovalari.
6. World Health Organization (WHO). “The Rational Use of Drugs.” – www.who.int

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15485112>

UO‘K: 796.5:(3713)

QAMASHI TUMANI TOG‘ OLDI VA TOG‘ HUDUDLARIDA SOG‘LOMLASHTIRISH MASKANLARINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Nurmatov Muhammadqosim Zokir o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada Qamashi tumanining tog‘ va tog‘oldi hududlarida aholini sog‘lomlashtirish va ekoturizm rivojlanishining hududiy sharoitlari o‘rganib chiqildi. Tumanning tog‘ va tog‘oldi hududidagi manzaralar, aholini sog‘lomlashtirish uchun mavjud tabiiy resurslar va ekoturizmni rivojlantirish yaratish uchun qulay imkoniyatlar haqida ma‘lumot berildi.

Kalit so‘zlar: Tog‘ va tog‘oldi hududlari, manzarali hudud, aholi salomatligi, sog‘lomlashtirish maskani, ekoturizm, daryo, tuz g‘ori.

ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ ЦЕНТРОВ В ПРЕДГОРНЫХ И ГОРНЫХ ТЕРРИТОРИЯХ КАМАШИНСКОГО РАЙОНА

Нурматов Мухаммадкасым Закир оглы
Магистрант Каршинского государственного технического университета

Аннотация. В статье обсуждаются территориальные условия оздоровления населения и развития экотуризма в горных и предгорных территориях Камашинского района. Была представлена информация о ландшафтах горной и предгорной местности района, имеющих природные ресурсы для оздоровления населения и благоприятных возможностях для развития экотуризма.

Ключевые слова: горные и предгорные территория, живописная территория, здоровье населения, оздоровительный центр, экотуризм, река, соляная пещера.

ISSUES OF ORGANIZATION OF HEALTH CENTERS IN FOOTHILL AND MOUNTAIN TERRITORIES OF KAMASHINSKY DISTRICT

Nurmatov Mukhammadkosim
Master's student of Karshi State Technical University

Abstract. *The article discusses the territorial conditions for the improvement of the population and the development of ecotourism in the mountainous and foothill territories of the Kamashinsky district. Information was provided on the landscapes of the mountainous and foothill areas of the region, available natural resources for improving the population and favorable opportunities for the development of ecotourism.*

Key words: *mountain and foothill territory, picturesque territory, public health, health center, ecotourism, river, salt cave.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 73-moddasida sog‘lomlashtirish maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar jumlasiga kasalliklarning oldini olish va ularni davolashni tashkil etish uchun qulay tabiiy omillarga, shifobaxsh hamda sog‘lomlashtirish xossalriga ega bo‘lgan, qonunchilikda belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan yerlar kiradi. Aholining davolanishi va dam olishi uchun zarur sharoitlarni, shuningdek tabiiy shifobaxsh hamda sog‘lomlashtirish xossalari muhofaza qilinishini ta’minlash maqsadida sog‘lomlashtirish maqsadlariga mo‘ljallangan yerlarda kurort tabiiy hududlarning rejimi belgilab o‘tilgan. [2]

Demak, sog‘lomlashtirish maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar toifasiga davolash ahamiyatiga ega bo‘lgan mineral suvlar, qum va balchiq mavjud bo‘lgan yerlar, davolash ahamiyatiga molik gazli va par mavjud bo‘lgan; naftalan, yod, ozokerit yoki tuzli, davolash hamiyatiga ega bo‘lgan salqin bahavo yerlar, davolash ahamiyatiga ega bo‘lgan daryo, ko‘l va dengiz yerlari, dam olish joylaridagi plyajlar, shifobaxsh omillarga ega bo‘lgan hamda davolash xususiyatiga molik o‘rmon va dov-daraxt o‘rmon bilan qoplangan istirohat bog‘lari hamda boshqa sanitariya-gigiyena ahamiyatiga ega bo‘lgan yerlar kiradi [3].

Har bir hudud o‘z iqlimi, rel’efi, suv va tuprog‘i, shu bilan birga iqtisodiy-ijtimoiy jihatlari bilan o‘zaro farqlanadi.

Qashqadaryo zamini o‘zining betakror tabiati, baland va viqorli tog‘lari, daryolari, buloqlari, bepoyon kengliklari va go‘zal dam olish maskanlari bilan aholini sog‘lomlashtirish va turizm sohasining rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi.

Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumani shimoldan Chiroqchi, Yakkabog‘, Shahrisabz tumanlari, g‘arbdan Koson, Qarshi tumanlari, janubdan G‘uzor, Dehqonobod tumanlari, sharqdan Surxondaryo viloyatining Boysun tumani bilan chegaradosh. Umumiy yer maydoni 2,66 ming km². Qamashi tumanining hududi g‘arbdan sharqqa qarab 150 km, shimoldan janubga 40–45 km ga cho‘zilgan. Tuman hududining g‘arbiy qismi tekislikdan iborat bo‘lib (450 m) sharqqa tomon ko‘tarilib boradi, tekisliklar, qir-adirlar, so‘ngra past va baland tog‘larga ulanib ketadi. Hisor tizmasining janubi-g‘arbiy tarmoqdaridan bo‘lgan Chaqchar tog‘i (3749 m), Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini ajratib turadi.

Qamashi tumaning tog'li va tekislik hududlarida qo'ng'irbosh, yaltirbosh, no'xatak, lolaqizg'aldoq, shuningdek, kovrak, bug'doyiq, oqquray, qoramurcha, yantoq, qizilmiya, yulg'un, tol, archa, zarang, pista, bodom, do'landa, itburun, qatrang'i, yovvoyi olcha, yong'oq va boshqa turli xil efemeroidlar o'sadi. Bo'ri, tulki, quyon, qobon, tog' ayig'i, kiyik, bo'rsiq, jayra, kalamush, sichqon, turli xil zaharli ilonlar, echkamar, kaltakesak; parrandalardan kaklik, kaptar, chil, so'fito'rg'ay, zarg'aldoq, chumchuq, chug'urchiq, bedana, lochin, burgut, qirg'ovul va boshqalarni uchratishimiz mumkin [4].



Qamashi tumani joylashuvi

Tuman hududidagi dam olish maskanlari tog' oldi va tog'li hududlarda joylashgan. Jumladan, Beshtarak, Oqsuv shaharchasi, Hisor davlat qo'riqxonasi, Kon qishlog'idagi tabiiy tuz g'orlari (galoterapiya), Qiziltepa mahallasidagi sog'lomlashtirish markazida salomatlikni tiklash uchun qulay iqlimiy sharoitlar mavjud.

Tumanning tog' oldi va tog'li qismlarida ko'plab shifobaxsh buloqlar mavjud. Shundan Beshtarak shifobaxsh buloq suvi aholi salomatligini tiklashda muhim sanaladi. Buloqda inson tanasi ichki a'zolari va tashqi yaralarni tuzatuvchi kimyoviy elementlar mavjud.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodikasi. Tog'li va tog'oldi hududlarida aholini sog'lomlashtirishda foydalaniladigan tabiiy resurslar va ekoturizmni rivojlantirish masalalari bo'yicha qadimda va bugungi kunda respublikamiz va xorijiy mamlakatlar olimlari ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarilarini olib borishgan. Jumladan, S.I. Abdullayev, R. Usmanova, R.X. Allayorov, X.X. Jumayev, A.M. Mamatov, B.E.Xo'jamqulov, M.K. Qalandarova, M.G.Nazarov, Q.S.Yarashev, J.Yu.Hasanov, Q.Badalov, B.B.Yusupov va boshqa mualliflarning aholini sog'lomlashtirish va ekoturizmni rivojlantirish sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlaridan metodologik asos sifatida foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Qamashi tumanining sharqiy qismida joylashgan tog'oldi va tog'lari Qashqadaryo viloyatining Yakkabog', Shaxrisabz, Kitob, Dehqonobod tumanlari va Surxondaryo viloyatining Boysun tumani tog'lari va vodiylari bilan chegaradosh.



Langar ota ziyoratgohi

Qamashi tumanining sharqiy qismida joylashgan tog‘lar landshaft geografik va tabiiy iqlim sharoitlariga ko‘ra mavsumiy va yil mobaynida turizmni va aholining ommaviy dam olishini tashkil etish mumkin bo‘lgan imkoniyatlariga ega.

Tog‘ning sof musaffo havosi va manzarasi aholini sog‘lomlashtirish, kasalliklarning oldini olish va davolash, sayohatlar va dam olishni tashkil qilish uchun qulay tabiiy imkoniyatlarga ega.

Tog‘ va tog‘oldi hududlarida mavjud bo‘lgan beqiyos shifobaxsh, tibbiyot va boshqa sohalarda keng ko‘lamda foydalanadigan chashma va buloq suvlari o‘zining ekologik jihatdan tozaligi, xilma-xil kimyoviy elementlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi [5]. Ular aholi sog‘ligini tiklash, sog‘lomlashtirish, dam olish uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi va mintaqamizda rekreatsiya (sog‘lomlashtirish, hordiq chiqarish) turizmning ahamiyatini oshiradi [6].

O‘zbekiston Prezidentining 2023-yil 28-noyabrdagi “Qashqadaryo viloyatining tog‘li rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 376-sonli qarorida Qashqadaryo viloyatidagi Shahrisabz va Qamashi tumanlarining tog‘li hududlarida zamonaviy turizm obyektlari barpo etilishi belgilangan [1].



Maydanak rasadxonasi



Tuz g‘ori

Qarorda, Qamashi tumanining “Katta o‘ra” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi umumiy maydoni 58,6 gektar bo‘lgan yer maydonida mehmonxona, sog‘lomlashtirish sanatoriysi, umumiy ovqatlanish obyektlari, dor yo‘llari, tog‘-chang‘i kompleksi va boshqa turistik ahamiyatga ega obyektlar barpo etishni nazarda tutuvchi master loyihasi ishlab chiqilishi qayd etilgan. Bugungi kunda “Maydanak baland tog‘” turistik markazi hududida keng qamrovli ishlar davom ettirilmoqda.

Xulosa. 1. Qamashi tumani hududining sharqiy qismida joylashgan tog‘oldi va tog‘larning tabiiy resurslari: o‘rmonlar, archazorlar, dorivor giyohlar va foydali o‘simliklar, shifobaxsh buloq suvlaridan aholini sog‘lomlashtirish va davolash maqsadida foydalanish va sayohatlar, ekskursiya, dam olishi uchun qulay sharoitlar mavjud. Qamashi tumanining tog‘ va tog‘ oldi hududlarida sog‘lomlashtirish va rekreatsion ob’ektlarni qurish va ulardan samarali foydalanish.

2. Davolovchi xususiyatga ega Beshtarak shifobaxsh buloq suvi va Kon qishlog‘idagi tabiiy tuz g‘orlarida tuz bilan davolash maskanlarini barpo etish va ularning muxofaza zonalarini belgilash.
3. Tuman hududidan 30 km masofada oqib o‘tayotgan Qashqadaryo qirg‘oqlarida qum bilan davolash va sog‘lomlashtirish maskanlari, plyajlar barpo etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Prezidentining 2023-yil 28-noyabrdagi “Qashqadaryo viloyatining tog‘li rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 376-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. <https://lex.uz/acts/-15265>
3. J.T.Xolmo‘minov. “Yer huquqi” Darslik. Toshkent: TDTU, 2019. 252 b.198-199-betlar
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qamashi_tumani
5. Abdullayev S.I., Usmanova R. Qashqadaryo landshaftlarini tasnif qilishning ayrim masalalari //Janubiy O‘zbekiston tabiat manbalaridan oqilona foydalanish masalalari. -T., 1997. –B. 22-27.
6. Alibekov L.A., “Inson va Tabiat” T, Fan va texnologiya 2016-y. 112-113 b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15485120>

O'ZBEKISTONDA ETNOARXELOGIYANING RIVOJLANISHI UCHTUT MISOLIDA

Sunnatov Otabek Ulug'bek o'g'li
Buxoro davlat Universiteti Magistranti
sunnatovotabek754@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda etnoarxeologiyaning shakllanishi va rivojlanish jarayoni, xususan, Buxoro vohasidagi Uchtut tosh davri konlari misolida tahlil qilinadi. 1960-yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar asosida konlardan topilgan tosh, suyak va shoxdan yasalgan mehnat qurollarining tuzilishi, tayyorlanish texnologiyasi va ishlatilish funksiyalari etnoarxeologik yondashuv asosida o'rganilgan. Tadqiqot natijalari Uchtut tosh davri jamoalarining xo'jalik faoliyati, konchilik tajribasi hamda asbob-uskunalaridan foydalanish madaniyati haqida muhim ma'lumotlar beradi. Maqolada shuningdek, arxeologik eksperimentlar va laboratoriya tadqiqotlari orqali qurollarning ishlash prinsiplari va ularning tayyorlash bosqichlari ilmiy asoslangan holda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Uchtut, etnoarxeologiya, chqmoqtoshli, shag'alli, quvursimon suyak, kiln, Qoratorov, bug'u shoxi, bigiz.

THE DEVELOPMENT OF ETHNOARCHAEOLOGY IN UZBEKISTAN: THE CASE OF UCHTUT

Annotation: This article analyzes the formation and development of ethnoarchaeology in Uzbekistan, with a particular focus on the Uchtut Stone Age sites in the Bukhara oasis. Based on archaeological excavations carried out in the 1960s, the structure, production technology, and functional use of labor tools made from stone, bone, and antler found at the sites are examined through an ethnoarchaeological approach. The results of the research provide significant insights into the economic activities, mining experience, and tool-use culture of Uchtut Stone Age communities. The article also scientifically discusses the principles of tool operation and the stages of their production using archaeological experiments and laboratory analyses.

Keywords: Uchtut, ethnoarchaeology, flint, gravel, tubular bone, kiln, Qoratorov, deer antler, needle.

KIRISH. Etnoarxeologiya — bu arxeologik yondashuvlardan biri bo‘lib, u zamonaviy yoki yaqinda mavjud bo‘lgan jamiyatlar hayot tarzini, xo‘jalik faoliyatini, asbob-uskunalaridan foydalanish tajribasini o‘rganish orqali o‘tmishdagi madaniyatlarni rekonstruksiya qilishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv ayniqsa ibtidoiy jamiyatlar faoliyatini anglashda, ularning ishlab chiqarish vositalari va mehnat qurollarining funksional xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston hududida etnoarxeologik yondashuvlar 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshlagan bo‘lib, bu borada Buxoro vohasidagi Uchtut konlarida olib borilgan tadqiqotlar alohida o‘rin tutadi. 1961–1975-yillarda O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Tarix va Arxeologiya instituti tomonidan amalga oshirilgan qazishmalar natijasida Uchtut qo‘nalg‘asida turli tosh, suyak va shoxdan yasalgan mehnat qurollari topilgan. T.Mirsoatov va boshqa mutaxassislarning tajriba va laboratoriya ishlari asosida bu qurollarning yasash texnologiyasi va funksional tafsifi aniqlangan.

Tadqiqot maqsadi: Uchtut konlaridan topilgan ashyoviy dalillar asosida o‘tmish jamiyatining xo‘jalik faoliyati, ishlab chiqarish vositalari va ularni tayyorlash usullari etnoarxeologik tahlil vositasida o‘rganiladi. Bu orqali tosh davri insonining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida kengroq tasavvur hosil qilish mumkin.

Asosiy qism. Etnoarxeologiya — bu tarixiy arxeologik topilmalarni, ayniqsa mehnat qurollari, uy-joy, dafn marosimlari, hunarmandchilik kabi madaniy unsurlarni zamonaviy yoki yaqin tarixiy davrlardagi xalq urf-odatlarini, yashash tarzlari bilan taqqoslab o‘rganadigan fan yo‘nalishidir. Etnoarxeologik yondashuv O‘zbekistonda XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa 1960–1970-yillarda rivojlana boshladi. Bu davrda O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining Tarix va Arxeologiya instituti tomonidan olib borilgan kompleks tadqiqotlar asosida dastlabki amaliy ishlar bajarilgan.

O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Tarix va Arxeologiya instituti 1961-1975-yillar oralig‘ida Buxoro vohasida arxeologik ekspeditsiyalar amalga oshirildi. Bu tadqiqotlar Buxoro vohasi Qorator janubiy yonbag‘irlarida joylashgan Uchtut konlarida amalga oshirilgan bo‘lib, unda katta miqdorda tosh va suyakdan yasalgan qurollar topilgan.

Mashhur arxeolog T. Mirsoatovning “О ТЕХНИКЕ ИЗГОТОВЛЕНИЯ И ФУНКЦИОНАЛЬНОМ НАЗНАЧЕНИИ КОСТЯНЫХ И РОГОВЫХ ОРУДИЙ УЧТУТА” nomli maqolasida Uchtut tosh qurollari yasash texnikasi va ularning funksiyalarini aniqlashtirish borasida yetarlicha ishlarni amalga oshirgan. Shu maqsadda SSSR FA Leningrad bo‘limining arxeologik-texnologiya laboratoriyasida

1124 dona shag'al toshli va 254 dona chaqmoqtoshli qurollar o'rganilgan¹. Neolit davriga oid Uchtut qo'nalg'asida hozirgi vaqtga qadar 32 ta shaxta ochilgan. Faqatgina 1972-yilga kelib, bu shaxtalarda 30 mingga yaqin mayda tosh va chaqmoqtosh qurollari hamda ularning ishlov berish chiqindilari topilgan. Bu mehnat qurollari dastlab M. Qosimov tomonidan chaqmoqtosh qazib chiqarish asboblari sifatida aniqlangan². Mirsoatov Uchtut konlarida topilgan tosh qurollarning materiali, shakli, tayyorlash texnikasi va vazifasiga qarab ikki katta guruhga bo'lgan: *shag'alli* va *chaqmoqtoshli*.

Bundan tashqari, shaxtalarda hayvon suyaklari va shoxlaridan yasalgan qurollar topilgan. Shoxdan yasalgan qurollar har bir shaxtada uchraydi. Ular asosan Buxoro bug'usi shoxining novdalaridan uch xil usul: *chaqmoqtosh bilan kesish*, *zarbli qurollar bilan ajratish*, *yondirish usuli* bilan tayyorlangan mehnat qurollari.

Shag'al toshli guruh quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ❖ og'ir ikki qo'l bilan ishlatiladigan bolg'a-nakovallar;
- ❖ bir qo'l bilan shag'alni teshib sindiruvchilar-nakovallar;
- ❖ bir qo'lli zarbali ketmonlar;
